

## TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li, Maktab menejmenti (JDPI)  
Asadova Farzona Fozil qizi,Maktab menejmenti (JDPI)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif va tarbiyaning asosi, poydevori bo'lmish matabning ahamiyati va hozirgi kundagi ta'lif tarbiya jarayonlarining mazmun mohiyati keltirib o'tilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyev prizidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmli, malakali kadrlar taylorlash yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalarining mazmuni ham o'rinn olgan.

**Kalit so'zlar:** moddiy texnika, metodika, ta'lif, tarbiya, malaka, korrupsiya, direktor, ilmiy-falsaviy va dinamistik dunyoqarash, boshqaruv, menejment.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa oilada, o'quv dargohlarida ta'lif va tarbiyaga kuchaytirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchasiiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, maktabgacha ta'lifning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiyo'rta ta'lif muassalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filliallari tashkil etilmoqda. Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo'nalishdagi ilmiy-falsaviy va dinamistik dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo'nalishda bo'lishi, diniy dunyoqarash esa Respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak.

Har bir iqtidor va qobiliyatni yuzaga chiqarish o'quvchilarning intilishiga munosib yo'l ko'rsatishda matabning ahamiyati benihoya katta. So'nggi yillarda maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, o'qituvchilar metodikasini yanada rivojlantirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirildi va hozir ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlangan davlatlarning tarixiga qaraydigan bolsak, butun jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan harakatlar avvalo, ta'lif tizimidan bog'cha, maktab tarbiya masalasida boshlanganini ko'ramiz, chunki matabni o'zgartirmasdan turib insonni jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Ta'lif va tarbiyaning asosi, poydevori bu matab hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyev prizidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmli, malakali kadrlar taylorlash yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan edilar. Mana shunday davlatni yuksak davlatlar qatoriga chiqarish uchun harakat qilayotgan bir paytda, davlatni orqaga tortib turadigan g'araz niyatli faqat o'z manfatlarini o'ylaydigan, davrimda mazza qilib yashab qolay qobilida ish ko'radigan insonlar oramizda afsuski yo'q emas.

Yurtboshimiz korrupsiyani yo'q qilish uchun kurashayotgan bir paytda korrupsiya o'chog'ini gurkiratib yoqayotgan insinlarni davlat hoyini deb aytsak

ham bo'ladi. Masalan maktablarda ishlayotgan xodimlarning deyarli 80-90 foizi direktorning yaqinlari ekanligi ajablanarli holat. Bu yerda qanaqa ish bo'lishini o'zingiz ham anglagan bo'lsangiz kerak. Darsga kechikib kelsa, boshqa ishi yuzasidan maktabga kelmasa, dars berish metodikasi yo'q bo'lsa ham u direktorning yaqinlaridir. Direktor beihtiyor unga qattiq gapira olmaydi. Shunday ekan xodimda ham yaqinligini aytamanda, yomon gapirmaydi mazmunidagi fikrlar paydo bo'ladi. Bilimli tajribasi bo'lmasa uni ishdan haydab yubora olmaydi. Chunki biz bilamizki, yuqorida aytganimizdek u direktorning yaqin insoni.

Bunday muammolar bo'lgandan so'ng pedagogik jamoada har xil nizoli vaziyatlar uchrab turadi. Bu vaqtida esa rahbar odil qaror qabul qilishda ikkilanishi mumkin.

Bu kabi muammolarning yechimi esa hozirgi kunda ilm maskanlarimizda, oliy ta'lim muassasalarida 2019 yildan boshlab, ta'lim sohasini boshqaruvchilik yo'nalishi ya'ni "Maktab menejmenti" deb nomlangan yo'nalishning ochilgani bejiz emas.

Mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erishishda salohiyatli rahbar kadrlar tayyorlash masalasi birini o'mnda turadi. Bugungi kunda boshqaruvda yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish va bir vaqtning o'zida xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarni o'rgatish boshqaruvning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan zamon talabidir.

Bo'lajak maktab direktorlari uchun ochilgan ushbu yo'nalish asosida ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish yo'nalishidagi asosiy tushunchalar va ularning mazmun-mohiyati, shuningdek, ta'lim menejmentining nazariy jihatlari va uning ta'lim muassasalarini boshqarishda qo'llanish uslublari keltirilgan bo'lib, zamonaviy maktab rahbarlari ta'lim muassasasi sharoitining turli jarayonlarida nafaqat menejment sohasi yo'nalishida nazariy tushunchalarga ega bo'lishi, balki maktab amaliyotida uni tatbiq eta olishi, ta'lim muassasasi xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirishda va ularni boshqarishda to'g'ri va izchil qarorlarni qabul qila olishi zaruriyati ham inobatga olingan.

Boshqaruv tizimi – bu jamoa hayoti obrazi, uning psixologik iqlimi sifatida integrativ xarakterga ega bo'luvchi va boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlari (sub'ektlar, maqsad, mazmun va faoliyat usullari, munosabat)ning o'zaro harakati sharoitida qator vazifalarni bajaruvchi yaxlit ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.

Davlatimiz amalga oshirayotgan islohotlarning ayni vaqtida davlatimizdagи rahbar xodimlarga qo'yilayotgan talablar va ularni mazmun mohiyatiga alohida e'tibor berib kelayapti. Boshqaruvda yosh kadrlarning faoliyati davomida ular milliy umuminsoniy va axloqiy qadriyatlarga, insonlarning erkinligi va huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratishlari shart. Bu esa ularning baxtli bo'lishi hayotda o'z o'rni ega ekanligini his qilib yashashiga yordam beradi.

Ayni paytda yurtimizda ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlarida hamda xalqaro talablarga mos keladigan oily ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarini sirtqi va kechki bo'limlarining ochilishi oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining ochilishi masofaviy ta'limlarni boshlanishi ta'lim

yo'nalishidagi asosiy islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga ta'lif muassasalarining faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlab qolmoqda va bu muammolarni oldini olish uchun talaba yoshlarni qiziqtirishimiz va shu bilan birga ularga keng imkoniyatlar yaratib berishimiz kerak.

Mamalakatimizda so'ngi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prizidentimiz ta'kidlagandek; "Farzandlarimiz mактабдан qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muommolarni yechish imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston ostonasi mактабдан boshlanadi desak, o'ylaymizki butun xalqimiz bu fikrni qo'llab quvvatlaydi " Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini oily ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Davlatimiz rahbarining Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya ba boshqa mamlakatlarning nufuzli mutaxassislarini ta'lif jarayoniga jalb qilish, yurtimizda xorijiy mamlakatalar universitetlarning filiallarini ochish, yoshlarimizning xorijda malaka oshirishi yoki o'qishi uchun imkoniyat yaratishga alohida e'tibor qaratilishining ham boisi shunda.

Prizidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lif tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda kengashlar va vakolatlarning kengayayotgani ta'lif sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lif xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda,davlatimiz rahbarining ta'lif va tarbiya sohasidagi tub islohatlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom etish hammamizning nafaqat vazifamiz balki muqaddas burchimiz bo'lishi kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nazarov, T. (2021). TANQIDIY FIKRLASH – KELAJAK KASBLARINING MUKAMMAL POYDEVORI. *Zamonaviy ta'linda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(1). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/459>
2. Toshboyeva, H. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. Мир исследований, 1(1). извлечено от <https://presedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>

3. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Toshboyeva Hulkar Mirzaboy qizi. (2021). ISSUES OF ETHICS AND ETHICS IN THE CHILDHOOD OF HAZRAT SHAIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 93–95. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1227>
4. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
5. Alimova, Q. (2020). Farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/436>
6. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSİYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. Jizzax innovatsion ta'limi, 1 (1). <Https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
7. Аблякимова, Р., & Usmonov, A. (2021). Умумтаълим мактабни самарали бошқаришда янгича ёндошув. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>
8. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536>.
9. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527>.